

UDK: 355.233.231

FALSAFA FANINI O'QITISH ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY NATIJALARI

Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich

*Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakultet
jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi kafedrası
kafedrası Dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
x.xaydaraliyev1@mail.ru, ORCID ID [0009-9025-0373](https://orcid.org/0009-9025-0373)*

Annotatsiya. *Mazkur maqollada falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish tajriba-sinov ishlarining nitijasi va ularning samaradorligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, vatanparvar, respondent, tajriba, fazilat, meros, mezon, samara, shaxs.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *В данной статье речь пойдет о результатах опытно-экспериментальной работы по развитию патриотических качеств у студентов на основе философского образования и их эффективности.*

Ключевые слова: *образование, патриот, респондент, опыт, добродетель, наследие, критерий, эффект, личность.*

PRACTICAL RESULTS OF DEVELOPING PATRIOTIC QUALITIES IN STUDENTS THROUGH TEACHING PHILOSOPHY

Abstract. *This proverb tells about the nitija of experimental and test work and their effectiveness in the development of patriotic qualities in students on the basis of philosophical education.*

Key words: *education, Patriot, respondent, experience, virtue, inheritance, criterion, effect, personality.*

KIRISH

Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirishda talabalarga bilimni yeyetkazishning eng muhim jihatlaridan biri namoyish etish, ko'rsatish, tushuntirish hamda amaliy bajarish

usullari bugingi kunda mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga katta yordam bermoqda. Respondent-talabalarga "Vatanparvarlikni qanday tushunasiz?" – degan savol bilan murojaat qilinganida, ularning 51.7 foizi Vatanni sevish deb tushunishi, 6.7 foizi esa tug'ilgan joyini sevishi deb bililadilar. Ularning 5.7 foizi esa vatanparvarlik deganda armiyada hizmat qilishni tushunadilar. Respondentlarning 35.9 foizi esa vatanparvarlik deganda so'rovnoman keltirilgan javob variantlaridan boshqacha o'zlarining shaxsiy fikrlarini bayon qilishgan.

Shuningdek, respondentlarga "O'zingizni chinakam vatanparvar deb hisoblaysizmi?" – degan savol bilan murojaat qilganimizda, ularning 67.4 foizi o'zlarini vatanparvar deb hisoblashadi. So'rovlarda ishtirok etganlarning 5.7 foizi o'zlarini hali vatanparvar emasligini tan olishgan bo'lsa, yana 26.9 foiz talabalar bu o'rinda javob berishga qiynalishini bildirishgan. Respondentlarga "Qaysi kasb egalarini chinakam vatanparvar deb bilasiz?" – degan savol murojaat qilinganida, ularning aksariyati 50.7 foizi Harbiy soha xizmatchilarini vatanparvarlikning timsolida ko'radilar. Ularning 3.4 foizi vatanparvar sifatida sportchilarni, 2.2 foizi sanatkorlarni va 8.9 foizi esa ustoz-murabbiylarni vatanparvar sifatida ko'rishadi. Ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan talabalarning 34.8 foizi turli sohadagi kasb egalarini vatanparvarlikning timsoli sifatida ko'radilar.

Shuningdek, talabalarga qaysi kasb egalarida vatanparvarlik tuyg'usi yuqori bo'lishiniga qaratilgan "Sizningcha kimlarda vatanparvarlik tuyg'usi yuqori?" degan savol bilan murojaat qildik. Javoblarga nazar tashlasak, respondentlarning 34.9 foizi Harbiy soha xodimlarida vatanparvarlik tuyg'usi yuqoriroq deb bilishsa, 29.2 foizi esa Ozodlik qahramonlarida bu tuyg'uni yuqori deb hisoblaydilar. So'rovda qatnashganlarning 5.6 foizi boshqalarga nisbatan vatanparvarlik tuyg'usi davlat arboblarda kuchli bo'ladi, deb fikrlaydilar. Shuningdek, so'rovda qatnashgan talabalarning 30.3 foizi esa boshqalarga nisbatan vatanparvarlik tuyg'usi yuqori, deb hisoblagan turli kasb egalarini yozishgan.

Ijtimoiy so'rovlarimizga jalb qilingan respondentlarning o'z vatanparvarligini namoyon qilish borasidagi "Vatanparvarlikni ko'proq qaysi sohada namoyon etgan bo'lardingiz?" – degan savolimizga javoblar quyidagicha bo'ldi: respondentlarning 19.1 foizi ilm sohasida xizmat qilish orqali, 32.6 foizi ta'lim sohasida, 7.9 foizi san'at

sohasida va 5.6 foizi tadbirkorlik faoliyati bilan o'z vatanparvarligini namoyon qilishi mumkinligini bildirishgan. So'rovda qatnashganlarning aksariyati, ya'ni 34.8 foizi vatanparvarlikni namoyon qilishning eng maqbul sohasi harbiy xizmatchi bo'lib faoliyat ko'rsatish va shu bilan bu tuyg'uni namoyon qilish mumkin deb hisoblaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev barcha asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning tarixiy asoslari Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir olimlarning mumtoz asarlarida o'zaksini topgan.

Oliy pedagogik ta'limda talabalarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish, milliy tarbiyaga ustuvorlik berish asosida vatanparvarlikni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari Sh.Barotov, A.Begmatov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, S.Nishonova, B.Xodjayev, M.Sharifxo'jayev, B.Shermuxammadov, J.Yuldashev, M.Kaxxarova, M.Qirg'izboyev, M.Quronov va boshqalar tomonidan tadqiq yetilgan. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlikning nazariy va amaliy asoslari I.Inoyatov, Sh.Jo'rayev, M.Nabiyev, A.Uzaqov kabilarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, vatanparvar insonga qo'yilgan talabalar boshqalardan ko'ra ko'proq bo'ladi. Shu sababli respondentlarga "Sizningcha vatanparvar qanday bo'lishi kerak?" –degan savol bilan murojaat qildik. Ularning 34.6 foizi Vatani sevuvchi va asrab-avaylovchi insonlarni haqiqiy vatanparvarlar deb hisoblaydilar. Shuningdek, Vatanga sadoqat va uni himoya qilish vatanparvarlikning asosi, deb bilganlar respondentlarning 21.1 foizini, ma'naviyatlilik va halollik vatanparvarlikning muhim mezonini deb hisoblaydiganlar respondentlarning 17.2 foizini, Vatan uchun jonini fido qilishi vatanparvarlikning asosi deguvchilar respondentlarning 14.8 foizini hamda shaxs sifatida shakllangan va ma'suliyatli bo'lgan kishi haqiqiy vatanparvarlikni ifodachisi bo'ladi deb hisoblaydiganlar respondentlarning 12.3 foizini tashkil qildi.

Talaba-yoshlarning vatanparvarlik haqidagi bilim darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovlarimizda ularning o'zbek halqiga xos qaysi qahramonlik dostonlarini bilish darajasi ham o'rganildi. Natijalar esa quyidagicha bo'ldi:

Alpomish	42.2%
Rustamxon	17.4%
Kuntug'mish	15.4%
Go'ro'g'li	12.1%
Ravshan	5.4%
To'maris	4.7%
Shiroq	2.8%

Ma'lumki vatanparvarlik ko'plab omillar va vositalar asosida shakllanadi va turli yo'llar va usullar bilan uni mustahkamlab borish mumkin. Talaba-yoshlarning bu boradagi fikrlarini aniqlash maqsadida ularga "Vatanparvarlikni shakllantirishda qaysi omillar yuksak ahamiyatga ega?" – degan savol bilan murojaat qildik. Respondentlarning eng ko'pi ya'ni 42.4 foizi vatanparvarlikni shakllantirishda ma'naviy omillarning rolini yuqori deb biladilar. Keyingi o'rinda esa 32.4 foiz respondentlar haqqoniy yoritilgan tarixning o'rnini ko'rsatishgan bo'lsa, ularning 8.1 foizi esa madaniy omillarga e'tibor qaratishgan. Shuningdek, so'rovlarimizda ishtirok etgan talabalarning 17.1 foizi esa vatanparvarlikni shakllantirishda boshqa omillarning rolini aytib o'tishgan.

Talaba-yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni shakllantirishda imkoniyatlari kengroq sohalar:

Sohalar nomi	Javoblar miqdori
Kino	18.9%
Teatr	11.6%
Kitob	61.1%
Qo'shiq	2.1%
Internet	6.3%

Insonning o'z vatanparvarligini namoyon qilishning imkoniyatlari, darajalarini baholash ham muhim hisoblanadi. Shu maqsadda respondentlarimizga "Vatanparvarlik ko'rsatishda qaysi jihatni muhim deb hisoblaysiz?" – degan savol bilan murojaat qildik. Javoblar tahlili ko'rsatishicha so'rovda ishtirok etgan yoshlarning 58.4 foizi aqliy imkoniyatlarni birinchi o'ringa qo'yadilar. Respondentlarning 4.5 foizi jismoniy imkoniyatlarni, 2.2 foizi esa lavozim-mansab imkoniyatlarini va 9.0 foiz respondentlar hissiy imkoniyatlarni muhim deb hisoblaydilar. So'rovlarda ishtirok etgan yoshlarning 25.9 foizi esa inosning vatanparvarligini ko'rsatishda so'rovnomada keltirilmagan turli jihatlarni yozishgan.

Savollarga berilgan javoblardan talaba-yoshlarning Vatanni sevish, asrash, himoya qilish va Vatan kelajagiga befarq emasligi kuzatiladi. Biroq, natijalar tahlili yoshlarga vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirish, ularda bu fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqotning samaradorligini oshirish, bu borada ta'sirchan usul va vositalardan foydalanish zarurligidan dalolat beradi.

Quyida «Falsafa» fanini bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanma asosida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi to'g'risida so'z yuritiladi.

Ushbu o'qitish uslubida, an'anaviy usullardan farqli ravishda, o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli, vositasi va metodikasi kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviy bog'liqlik axborot texnologiyalarining usul va vositalari yordamida ta'minlanadi. Bu yerda asosiy o'qitish vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalari, multimediali elektron o'quv qo'llanma, usul sifatida foydalaniladi.

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari asosida talabalarni dars jarayoniga qiziqtirish, muammoli o'quv darslarini va mustaqil ishlash soatlarini samarali tashkil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bois fanlarni o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Axborot texnologiyalari asosida dars o'tish asosan, o'qitilayotgan fanning mavzusiga tegishli jarayonlarni o'quv qo'llanmalar, virtual stendlar asosida obrazlar ko'rinishida ifodalash va talabalarga yetkazib berish orqali amalga oshiriladi. Talabalarning mazkur bo'lim bo'yicha falsafiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda

axborot texnologiyalari vositasida dars o'tish katta samara beradi. Talabalar o'quv materiallarining mazmunini tushunib yetishi uchun ularga uning raqamli texnologiyalardai namoyish etiladi. Talabalarning kompyuterda tegishli mavzular ustida amaliy shug'ullanishi tufayli ularning falsafiy bilimini ko'nikmaga, ko'nikmani esa malaka darajasiga o'stirishga imkoniyat yaratiladi.

Tajriba sinov ishlarini tashkil qilishda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarning bilim darajasini ularning kelajakdagi faoliyatni e'tiborga olgan holda aniqlash vazifasi qo'yilgan edi. Tajriba sinov ishini maqsadi elektron o'quv qo'llanmani pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash. Ushbu o'rinda asoslovchi (izlanuvchi) va ta'kidlovchi tajriba sinov ishi jarayonida talabalarning falsafiy bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida ta'lim jarayonining farqi shundan iboratki, nazorat guruhida talabalar bilan mashg'ulotlar an'anaviy metodlar yordamida olib borildi, tajriba guruhida esa dissertant tomonidan taklif qilingan muloqatli dasturlar vositasida ta'lim berildi. Uning mazmuni bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan elektron o'quv qo'llanmaning ta'lim jarayoni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlash hamda ta'lim amaliyotida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim pedagogik zaruriyat ekanligini talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Tadqiqot davrida ilg'or pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlariga tayangan holda talabalarda otish tayyorgarligi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni boyitish, shuningdek, ularda imitatsion faoliyatni tashkil eta olish layoqatini takomillashtirishga imkon beruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari asosan falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari alohida-alohida o'rganildi, ularning sifat jihatidan rivoji va samaradorligi ilmiy-nazariy (ilmiy farazlar asosida) va amaliy jihatdan isbotlandi. Buning uchun dastlab talabalarning talab va ehtiyojlariga binoan muammoli vaziyatlardan foydalanib, o'quv materiallarining

ahamiyatini yanada kuchaytirish, kompyuterda mustaqil ishlashga ongli munosabatda bo'lish, faol hamda erkin ijodiy fikrlashga da'vat etuvchi tashkiliy pedagogik shart- sharoitlar yaratildi.

Ta'lim-tarbiya, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni yetishtirishda zamonaviy o'quv vositalari yordamida raqobatbardosh qilib tayorlashdek tomonlarini etiborga olgan holda, uning mazmuni va mohiyatiga hamda ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq etish uchun muammo yechimini topishga «Tizimli yondashuv» tadqiqot usuli qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish, ularning samaradorligini baholashni etiborga olgan holda, Tajriba-sinov ishlarida qatnashayotgan respondent-talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo'lindi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam ravshda tahlil etib borildi va ularni o'zaro taqqoslab, tegishli xulosalar chiqarildi, hamda lozim topilganda ayrim tuzatishlar qilindi. Ayniqsa, bu jarayonda qatnashayotgan tadqiqotchi, o'qituvchi-ekspert bildirgan fikrlarga qat'iy e'tibor berildi. Talabalarning bilim hamda kasbiy faoliyatga bo'lgan moyilliklari darajasi amaliy muammolarni mustaqil holda ijodiy yechimini topishlarida, o'rganilayotgan manba (mavzu, fan, jarayon, xodisa, shaxs va shu kabilar)ning ahamiyatini ilmiy anglab, maqbul ravishda talabalar intellektual mulkiga aylantirishi orqali aniqlanadi. Talabalarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda ongli o'zgartirish, bilimlarni davlat ta'lim talablari doirasida tizimlilikini va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyati kabilar mezon sifatida foydalanildi. Buning uchun dastlabki va so'nggi sinov natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot davrida «Falsafa» fanini ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitishga oid texnologiya asoslandi. Quyida mazkur texnoogiyani amaliyotda qo'llashning ahamiyati haqida so'z yuritildi. «Falsafa» fanini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ijobiy natijalarga erishishni kafolatlash bilan birga talabalarda quyidagi malakalarni shakllantirdi:

- mazkur texnologiya an'anaviy o'qitish texnologiyasidan keskin farq qilib, uning yordamida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ko'proq, chuqurroq,

batafsilroq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin; zero, mazkur texnologiya tez, aniq, qiziqarli va yakuniy natijaga (bosqichga) optimal erishini kafolatlaydi;

- raqamli texnologiyalar unversal didaktik vosita bo'lib, undan foydalangan holda o'qitishni boshqarish alqoratimini amalga oshirish mumkinligini ta'minlaydi.

2023-2024 yillarni qamrab olgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari mobaynida tadqiqot doirasi bilan qamrab olingan va talaba-yoshlarni vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanganlik darajasi sezilarli darajada o'sganligini ko'rish mumkin. Mazkur holatni Respublikada amalga oshirayotgan ta'lim islohatlari hamda milliy o'zligimizni anglashda yo'lida jamiyat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlarning samarasi sifatida qarash mumkin. Biroq aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyaning mavjud bo'lmaganligi bu davrlarda ham qoniqarli ko'rsatkichlarga erishish imkoniyatini bermas edi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida (2022-2023 yillar) falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda bir muncha yuqori natijalar qo'lga kiritilganligini qayd qilish mumkin. Bu holat «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan tadbirlarning amaliyotda o'z aksini topayotganligi hamda DTSlarning joriy etilishi samarasi sifatida qaralishi mumkin. Biroq ularning ehtiyojini to'la qondiradigan bilim manbalari: o'quv qo'llanmalari, darsliklar va elektron axborot manbalari ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli, biz amalga oshirgan tadqiqotlarimiz bu yo'nalishda yuzaga kelgan tabiiy ilmiy-amaliy ehtiyojlarga asoslanadi.

Hisoblash natijasida tajriba guruhlaridagi o'rtacha balning yuqori ekanligini ko'rsatdi, bu esa amalga oshirilgan mustaqil ta'lim metodining samarali ekanligini tasdiqlaydi. Ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyasi samaradorligini aniqlash. Darslarni tavsiya etilayotgan texnologiya asosida tashkil qilish natijalarini o'rganish uchun maxsus test va anketa savollari ishlab chiqildi. Didaktik nazorat vositalardan foydalangan holda tavsiya etilgan metodika asosida ta'lim olgan talabalarning bilimlari, shuningdek, pedagogik amaliyot vaqtida zamonaviy axborot texnologiyasidan samarali foydalana olish ko'nikma hamda malakaga egaliklari o'rganildi. Anketa so'rovi natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish uchun «Microsoft Excel» elektron jadvali imkoniyatidan foydalanildi.

Tadqiqot davrida ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiya etilgan metodikaning amaliyotga mosligini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, talabalarning faoliyatlarini bevosita kuzatish hamda ular bilan faol muloqotda bo'lish asosida dissertant tomonidan texnologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan amaliy mashqlarning «Falsafa» fanini o'qitishda samarali ekanligini aniqlandi. Xulosaning qay darajada asosli ekanligini tajriba guruhlarini talabalar tomonidan qayd etilgan ko'rsatkichlardan ham anglash mumkin. Quyidagi tajriba boshi va yakunida nazorat va tajriba guruhlarini respondent-talabalarining «Falsafa» fani bo'yicha o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarining dinamik o'zgarishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Asoslovchi tajriba davrida talabalarning «Falsafa» fani bo'yicha vatanparvarlik fazilatiga doir bilimlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida ularning e'tiborlariga test topshirig'i havola qilinganda, ular tomonidan qayd etilgan javob ko'rsatkichlariga ko'ra har ikki guruhda deyarli bir holat kuzatildi. Ya'ni (1.1-rasm):

1.1-rasm

Respondent-talabalarining «Falsafa» fani bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlari darajasi (asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Talabalar soni	Ko'rsatkichlardarajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	360	80	138	142
Nazorat	360	85	136	139

Ma'lumki, shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning samarasi ularni amaliyotga bevosita tatbiq etalishda ko'rinadi. Shu sababli tajriba-sinov ishlari davrida respondent-talabalarining vatanparvarlik bo'yicha mavjud amaliy bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ham egaliklari o'rganildi. Bekrilgan topshiriqlar respondent-talabalar tomonidan bajarilganda tajriba va nazorat guruhlarida uqadar sezilarli farqlar ko'zga tashlanmadi. Buni quyidagi jadval ko'rsatkichlaridan ham anglash mumkin (1.2-rasm):


1.2-rasm

Respondent-talabalarining «Falsafa» fani bo'yicha o'zlashtirgan amaliy malakalari darajasi (asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Talabalar soni	Ko'rsatkichlardarajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	360	71	145	144
Nazorat	360	73	142	145

Har ikki jadvallarning ko'rsatkichlari ham tajribadan so'ng tajriba guruhlarida holatning o'zgarganligini, nazorat guruhlarida esa o'zgarishsiz qolganligi ifodalaydi. 3.10-rasm ko'rsatkichlariga muvofiq hosil qilingan quyidagi diagramma tajriba va nazorat guruhlarini respondent-talabalarining falsafa ta'limi asosida vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirishga imkon yaratadi (1-diagramma).

Tajriba va nazorat guruhlarini respondent-talabalarini ko'rsatkichlarini diagrammada ifodalash



1-diagramma. Respondent-talabalarining «Falsafa» fani bo'yicha o'zlashtirgan amaliy malakalar ko'rsatkichlari (asoslovchi tajriba)

Diagramma ko'rsatkichlari talabalarining «Falsafa» fani bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish darajasi qoniqarli emasligidan dalolat beradi. Bu kabi salbiy holatga barham berish va falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik

fazilatlarini rivojlantirishlariga imkoniyat yaratish maqsadida shakllantiruvchi tajriba davrida maxsus metodika bevosita amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

Tajriba guruhlarida maxsus metodika qo'llanilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida amaldagi dastur yordamida mashg'ulotlar olib borildi. Metodikaning samaradorlik darajasi ta'kidlovchi tajriba davrida har ikki guruh talabalari tomonidan qayd etilgan ko'rsatkichlarni o'zaro qiyosiy o'rganish orqali baholash to'g'ri deb topildi. Shu maqsadda asloslovchi tajriba chog'ida bo'lgani kabi respondent-talabalar o'rtasida test va amaliy topshiriqlar qayta bajarildi. Natijada quyidagi ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning «Falsafa» fani asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obyektiv baholash maqsadida jadval ko'rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obyektiv baholash uchun ta'kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko'rsatkichlarini matematik-statistik metod bo'yicha tahlil etish to'g'ri deb topildi. Styudent-Fisher kriteriyasi g'oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarning davrida qayd etilgan tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka (1.3-rasm) ko'rsatkichlari qabul qilindi.


Styudent-Fisher kriteriyasi mohiyatiga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan natijalar tegishli ravishda 1- va 2-tanlanmalar deya qabul qilinadi. Har ikki tanlanmalar ko'rsatkichlariga muvofiq va riatsion qatorlar hosil qilinadi. YA'ni (1.3-rasm):

1.3-rasm

Tanlanmalarning darajako'rsatkichlari (ta'kidlovchi tajriba)

Guruhlar	Tanlanmalar	Respondentlar soni	Darajako'rsatkichlari		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajribaguruhi	1-tanlanma Xi	$n_1=360$	90	163	107
Nazoratguruhi	2-tanlanma Yj	$n=360$	78	145	137

Navbatdagibosqichdamazkur tanlanmalarga mos keluvchi diagrammanishakllantiriladi:



2-diagramma. Respondent-talabalarining «Falsafa» faniga tayyorgarligi bo'yicha o'zlashtirgan malaka ko'rsatkichlari (shakllantiruvchi tajriba)

XULOSA

“Falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish” tadqiqi doirasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. “Vatanparvarlik” “vatanparvarlik fazilatlarini”, “patriotizm”, “vatanparvarlik tuyg‘usi” kabi tushunchalarning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma’naviy mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida vatanparvarlikni mustahkamlovchi va aksincha uni yemiruvchi fazilat va illatlarning falsafiy-pedagogik mazmuni asoslandi.

2. Vatanparvarlik “muhabbat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqligi va chinakam vatanparvarlik muhabbatdan tashqarida voqe bo‘lolmasligi yoki muhabbatsiz chinakam vatanparvarlikning bo‘lishi mumkin emasligi hamda vatan ham, vatanga muhabbat tuyg‘usi ham har bir kishiga aziz va muqaddas ekanligi, umuman olganda, muhabbat makrodarajadagi vatanparvarlik hamda barcha axloqiy fazilatlarining asosi hisoblanishi asoslandi.

3. Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

4. Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantiruvchi ta'limiy-tarbiyaviy dastur rejalarini amalga oshirish bo'yicha so'rovlar o'tkazish natijasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборник произведений. Сост., науч. ред., авт. вступ. ст. М. Г. Ярошевский - Москва Просвещение. 1990. -517 с.
2. Юсупов Э. Инсонкамолотининг маънавий асослари. -Тошкент: Университет, 1998. –Б. 148-164.
3. Ҳарбий хизмат ахлоқи. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. – 110 б.
4. Эргашев Б.Э., Неъматов Б.М. Маънавий-ахлоқий ва ҳарбий тарбияни такомиллаштириш йўллари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси, 2004.
5. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафқуралар (маънавиятга таҳдид солувчи иллатлар). –Тошкент: Turonzaminziyo, 2015. – 400 б.